



Baxtsiz hodisaning sababchisi bo'lib qolmang!

3-betda o'qing



Ustamasiz qolgan raislarning murojaati o'rganildi

4-betda o'qing

INSON va qonun

2024-YIL
26-MART
SESHANBA

№ 12
(1424)

www.hudud24.uz

www.adolatmarkazi.uz [telegram.me/hudud24official/](https://t.me/hudud24official) facebook.com/hudud24official/

@adolat_nashrlari



"ADOLAT" milliy
huquqiy axborot
markazi nashrlariga
obuna bo'ling!



"Adolat
nashrlari"
telegram
kanalida
kuzating!

NAMANGANLIK TADBIRKORLAR BILAN UCHRASHUV



Adliya vaziri Akbar Toshqulov Namangan viloyatiga qilgan xizmat safari chog'ida hududda faoliyat olib borayotgan tadbirkorlar bilan uchrashdi.

Xususan, vazir Namangan shahridagi "Asror tekstil sanoat" mas'uliyati cheklangan jamiyati faoliyati bilan tanishib, korxonaning ishchi-xodimlari bilan suhbatlashdi.

Viloyatdagi mazkur yirik eksportyor korxonada 300 nafar ishchi-xodim faoliyat olib boradi. Korxonada ishlab chiqarilgan mahsulotlarning asosiy qismi chet davlatlarga eksport qilinmoqda.

Korxona faoliyatida huquqni qo'llash amaliyotida uchrayotgan ayrim muammolar bo'yicha takliflar o'rganildi hamda ularning yechimi bo'yicha huquqiy tushuntirishlar berildi.

O'z muxbirimiz



5-betda o'qing

Buzish oson, to'lash-chi?



6-betda o'qing

Amerika sehrli diyori. Ammo...



8-betda o'qing

Muvaffaqiyat formulasi

Bugun biror mamlakat yoki hududning taraqqiyotini faol axborot almashuviz, raqamlashtirishsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Aytish joizki, Navoiy viloyati respublikamizning nafaqat iqtisodiy salohiyatini mustahkamlashga yordam berayotgan sanoat markazi, balki axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash bobida ham yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Viloyat aholisining 60 foizdan ortig'i internetdan foydalanayotgani fikrimizni tasdiqlaydi. "Sensorika" internet markazi nomi bilan mashhur markazga har kuni yuzlab turli toifadagi mijozlar kelib, o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob oladilar.

QONUNCHILIKDAGI YANGILIKLAR



1-APRELDAN NIMALAR O'ZGARADI?



Bepul chiptalar ajratiladi

Qonunchilikka ko'ra, reyestrda kiritilgan yolg'iz keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslarga va ularga bevosita hamrohlik qiluvchi 1 nafar shaxsga bir yilda bir marta temir yo'l yoki shaharlararo avtobus uchun bepul chiptalar (borish va qaytish uchun) ajratiladi.

Reyestr "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi tomonidan yuritiladi.

Eksperiment tariqasida ayrim xizmatlar ko'rsatiladi

Samarqand va Farg'ona viloyatlari hamda Toshkent shahrida joylashgan ijtimoiy qo'llab-quvvatlash markazlarida eksperiment tariqasida:

- ularda joylashtirilgan shaxslarga ularning ehtiyoji hamda xohishiga ko'ra qisqa va uzoq muddat qolish hamda internat uyidan butunlay chiqish imkoniyati yaratiladi;
- ular tomonidan mobil, kunduzgi qatnov shaklidagi, qisqa va uzoq muddatli ijtimoiy va reabilitatsiya xizmatlari ko'rsatiladi.

Bunda, mazkur xizmatlardan:

- "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" ATga kiritilgan oilalarning o'zgalar parvarishiga muhtoj keksalari va nogironligi bo'lgan shaxslari bir yilda bir marta bepul;
- ijtimoiy qo'llab-quvvatlash markazlari joylashgan hududdagi keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslar shartnoma asosida foydalanadi.



Davomi 2-betda

2 KO'ZGU

Rishton tumanida yashovchi Shafolat Ismatullayeva buzilgan savdo do'koni evaziga kompensatsiya undirishda amaliy yordam so'rab, tuman adliya bo'limiga murojaat qildi.

KOMPENSATSIYA PULI UNDIRILDI



O'rganish jarayonida ayon bo'ldiki, Rishton tuman hokimining 2019-yil 13-maydagi qaroriga asosan 430 ta turar-joy binolari, "Rishton dehqon bozori" AJ hududida joylashgan tadbirkorlik subyektlari hamda yuridik shaxslarning 203 ta noturar obyektlari buzilishi belgilangan.

Gap shundaki, yuqoridagi qarorda tuman markazi qiyofasini tubdan o'zgartirish nazarda tutilgan. Ayni hujjat qabul qilingach, boshqa bino-inshootlar qatori Sh. Ismatullayevaning 33,44 kvadrat metrdan iborat savdo do'koni ham buzib yuborilgan. Ammo mulkdorga tegishli kompensatsiya puli to'lab berilmagan.

Shu bois, Shafolat opa buzilgan savdo do'koni bahosini aniqlash maqsadida Adliya vazirligi huzuridagi X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazi Namangan viloyat bo'limiga murojaat qilgan. Bo'limning 2023-yil 2-avgustdagi xulosasiga asosan savdo do'koni 114 million 181 ming 363 so'mga baholangan. Biroq shunda ham tuman hokimligi mulkdorga kompensatsiya pulini to'lab bermagan. Shu bois, Sh. Ismatullayevaning manfaatini ko'zlab, fuqarolik ishlari bo'yicha Rishton tumanlararo sudiga da'vo arizasi kiritildi.

Sud ish uchun ahamiyatga ega bo'lgan holatlarni o'rganib, Rishton tuman hokimligidan da'vogar foydasiga 114 million 181 ming 363 so'm undirish yuzasidan hal qiluv qarori qabul qildi.

Ikromjon ISAQOV,
Rishton tuman adliya bo'limi boshlig'i

Oila – hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini ta'minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga, kelajak avlod qanday voyaga yetishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'idir.



Oila - QADRIYATLAR BESHIGI, TARBIYA O'CHOG'I

Turmush qurish, oila tebratish, farzand tarbiyasi, muomala madaniyati kabi muhim ishlarda diniy va milliy an'analarimizga rioya qilish, oila va nikoh borasida belgilangan qonun-qoidalariga qat'iy amal qilish zarur. Afsuski, hozirgi kunda ba'zilar yuqorida aytilgan nikoh shartlarini bajarmasdan, o'zboshimchalik bilan ish tutishmoqda. Bo'lajak kelin yoki kuyovni, uning oilasi, hatto farzandlari bor-yo'qligini ham so'rab-surishtirmay, boz ustiga, yoshlarga oilada er va xotinning haq-huquqlarini, taloq masalalarini tushuntirmasdan, kelin-kuyovlarga nasihat qilmasdan, yengil-yelpi shar'iy nikoh o'qish holatlari ham ko'p uchramoqda. Ikki yoshni nikohlashdek mas'uliyatli ishni "yeng ichida" o'tkazishga urinish esa oilaviy ajrimlar ko'payishiga olib kelmoqda.

Ba'zi insonlar islom dini qizlarni

barvaqt uzatishga chaqiradi, degan noto'g'ri tushuncha bilan yashaydi. Bu – asossiz gap. Islomda hali balog'atga yetmagan, turmushga tayyor bo'lmagan o'smir qizlarni uzatish yoki nikohlash lozim, degan gap yo'q. Hatto balog'atga yetgan, jismoniy tarafdin turmushga tayyor yigit, agar oilani boqa olmasa, uning uylanishi shart emasligi aytiladi.

“

Ta'kidlash kerakki, hozir shifokorlar 16-17 yoshli qizlar turmushga tayyor emasligi, homiladorlik va tug'uruq holatida qiynalib qolayotganini aytib, ularni 19-20 yoshlarida turmushga berishni, yigitlarni 20-22 yoshlarida uylantirishni tavsiya qilishmoqda.

Ikki yosh rasman nikohdan o'tish uchun to'ydan bir oy (31 kun) oldin o'zlariga qulay bolgan FHDY bo'limiga birgalikda borib yoki onlayn ravishda "my gov.uz" portali orqali ariza berib, belgilangan tartibda tibbiy ko'rikdan o'tsagina, nikoh qonuniy ravishda rasman FHDY bo'limida qayd etiladi. Kelin-kuyovlarni to'ydan oldin majburiy ravishda tibbiy ko'rikdan o'tkazish tartibi bejiz qo'yilmagan. Navnihol yigit yoki qiz yashirin tarzda kechayotgan biror dardga chalingan, uni o'zi ham sezmay yurgan bo'lishi ehtimoldan xoli emas. Kamqonlik, yurak qon-tomir, buyrak xastaliklarini davolamay turib, homilador bo'lish nogiron bolalar tug'ilishiga olib kelishi hayotda ko'p isbotlangan.

Xastaliklarni oila qurishdan avval davolash oson. Davlatimiz yaratotgan bu kabi sharoitlar sog'lom turmush tarzini shakllantirish orqali oila mustahkamligini ta'minlashga qaratilgan. Zero, oilada yigit va qiz o'z vazifa va mas'uliyatlarini ado etishi, sog'lom farzand tug'ilishi uchun, avvalo, ikkisi ham sog'lom bo'lishi kerak.

Aksariyat erta nikoh qurgan qizlarda kamqonlik kuzatiladi. Bu hol kelinlarning uzoq vaqt farzandli bo'la olmasligi, go'daklarning nobud bo'lishi yoki nogiron tug'ilishiga, tug'uruqdan keyingi turli asoratlarga, hatto bepushtlikkacha olib kelishi mumkin.

Noqonuniy nikohlarning oldini olish uchun shar'iy nikohlarni faqat rasmiy jome' masjidlar imom-xatiblari yoki imom noiblari o'qishini, shar'iy nikoh o'qishdan oldin kelin-kuyovlarning rasmiy oila qurgani haqida FHDY bo'limlari guvohnomasi olinishini ta'kidlash zarur.

Aziza TOSHXO'JAYEVA,
Qibray tuman adliya bo'limi FHDY bo'limi mudiri

➔ Davomi. Boshlanishi 1-betda

1-APRELDAN NIMALAR O'ZGARADI?



Nomoddiy madaniy meros namunalarini saqlovchilar rag'batlantiriladi

Noyob va yo'qolib ketish xavfi ostida bo'lgan nomoddiy madaniy meros namunalarini saqlovchi 20 nafar shaxs aniqlanib, ularga ko'maklashiladi hamda faoliyatini baholash ko'rsatkichlari belgilab beriladi. Ushbu ko'rsatkichlarni bajargan nomoddiy madaniy meros namunalarini saqlovchi shaxslar har oyda 5 million so'm miqdorida rag'batlantirib boriladi.

Shuningdek, alohida ahamiyatga ega nomoddiy madaniy meros namunalarini yozib olish va keng tarqatish uchun har yili 50 ta audiovizual asar yaratishga davlat buyurtmasi beriladi.



Arxitektorlar sertifikatlanadi

Qonunchilikka ko'ra, shaharsozlik sohasidagi quyidagi toifa mutaxassislarni ularning faoliyat yo'nalishlari bo'yicha har 3 yilda bir marta serti-

fikatlash tizimi joriy etiladi:

- ☑ tuman (shahar) va viloyat arxitektorlari;
 - ☑ qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida nazorat qilish hududiy inspeksiyalari inspektorlari.
- Bunda, mutaxassislarni sertifikatlash ishlarini tashkil etish bo'yicha ishchi organ funksiyasi vazirlik huzurida tashkil etilayotgan Kompetensiyani rivojlantirish institutiga yuklanadi.

Ma'ruf LUKCHAYEV,
"Adolat" milliy huquqiy axborot markazi mas'ul xodimi

Yo'l qoidasi – umr foydasi, deydilar. Odatda, yo'l-transport hodisalari bo'lishi ko'pincha belgilangan tartib-qoidalarga rioya qilmaslik, haydovchilik gunohnomasisiz avtomobil boshqarish, haydovchilarning ehtiyotsizligi oqibatida sodir etiladi. Eng achinarlisi, buning oqibatida kimdir bir umrga nogiron bo'lib qolishi yoki hayotdan ko'z yumishi mumkinligidir. Bunday ko'ngilsiz hodisalarning oldini olish uchun haydovchi hamisha hushyor bo'lishi zarur.

BAXTSIZ HODISANING sababchisi bo'lib qolmang!



Yo'l-transport hodisalari bilan bog'liq huquqbuzarliklarning sabablari turlicha bo'ladi, albatta. Bir tomondan qoidalarga e'tiborsizlik oqibatida har xil turdagi yo'l harakati buzilishiga konkret yo'l harakati ishtirokchisi asosiy sababchi bo'lsa, ikkinchi tomondan huquqbuzarlikning ommalashgan turlaridan biri yo'l hodisasi vaziyatining harakat qatnashchilari tomonidan noto'g'ri baholash va oson hisoblash bo'lishi mumkin.

Yo'l-transport hodisalarning oldini olish uchun uning kelib chiqishiga sabab bo'lgan shart-sharoitlarni o'rganish katta ahamiyatga ega. Jumladan, konstruktiv defektlar va transport vositalarining tayyorlanishidagi texnologik kamchiliklar, transport vositalarini sifatli ta'mirlanishi oqibatida kelib chiqadigan texnik nosozliklar ham bunga sabab bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, ma'lum bir yo'l qismida yo'l harakatini tashkil etishdagi kamchiliklar, jumladan, yo'l belgilarining mavjud emasligi, yo'lning yaxshi ko'rinmasligi yoki nosozligi, svetofoarning ishlash tartibi noto'g'riligi va shunga o'xshash boshqa holatlar ham yo'l-transport hodisalari kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Mazkur yo'nalishdagi yo'l-transport hodisalarning oqibatlari o'rganilganida, yo'lning nosozligi, yoritilmagani, yo'l ta'miri ishlarini bajarishda tegishli tartib va qoidalarga rioya qilinmasligi, haydovchilarning yo'l harakati qoidalari texnik talablarining bajarilishini ta'minlamaganiga guvoh bo'lamiz. Ba'zi hollarda esa, transport vositalaridan foydalanish va ta'mirlash hamda yo'l holati uchun javobgar mansabdor shaxslarning asossiz harakatlari ham duch kelamiz. Ya'ni, texnik ko'rik vaqtida nosozliklarni ko'rib turib ko'rmaslikka olish holatlari ham uchrab turibdi.

PROFILAKTIK TAVSIYALAR

Yo'l-transport hodisalarning kelib chiqishiga sabab bo'lgan shart-sharoitlarni aniqlash uchun ko'p holatlarda alohida, maxsus bilim talab etiladi, albatta. Shu sababli, sud tergov-idorasi bunday masalani ekspert-avtotexnik zimmasiga yuklashi mumkin. Yo'l-transport hodisalarning oldini olish va kelib chiqish sabablarini aniqlashda yo'l-transport hodisalari bilan bog'liq bo'lgan profilaktik tavsiyalar asosiy yo'nalish hisoblanadi. Ekspert xulosasida o'tkazilgan tadqiqotlar natijalari, ya'ni yo'l-transport hodisasi sodir etilishi uchun vujudga kelgan shart-sharoitlar o'rganilib, xulosada ko'rsatiladi. Tergov organiga xabar berish orqali kelgusida bunday holatlarni bartaraf etish choralari ko'rilishi mumkin. Shuningdek, ekspert kelgusida yo'l-transport hodisalari kelib chiqishining oldini

olish maqsadida profilaktik tavsiyalar bilan bevosita Yo'l harakati xavfsizligi boshqarmasiga yoki to'g'ridan-to'g'ri tegishli tashkilotga murojaat qilishi mumkin.

Yuqoridagi aytib o'tilgan profilaktik tavsiyalar protsessual hisoblanadi. Ya'ni, ekspert sud-tergov organi tomonidan chiqarilgan qaror yoki ajrim asosida tadqiqotlar o'tkaziladi. Yo'l-transport hodisasining kelib chiqish sabablari va uni vujudga keltiruvchi shart-sharoitlar o'rganiladi va aniqlanadi. Bundan tashqari, profilaktik tavsiyalarning protsessual bo'lmagan shakli mavjud. Ular ekspert amaliyotini umumlashtirib, odatda, Yo'l harakati xavfsizligi boshqarmasi yoki sud-tergov idorasi bilan hamkorlikda o'tkaziladi.

Bu jarayonda ekspert-avtotexnik nazariy va eksperimental tadqiqotlar orqali yo'l-transport hodisalarning oldini olish muammolari o'rganiladi. Yo'l harakati xavfsizligi boshqarmasi hamda avtotransport yo'nalishiga ixtisoslashgan tashkilotlar xodimlari bilan o'quv mashg'ulotlari o'tkazish va ularga amaliy yordam ko'rsatish ham muhim o'rin tutadi. Aholi o'rtasida yo'l-transport hodisalarning oldini olish yuzasidan huquqiy targ'ibot ishlarini olib borish orqali ham ko'ngilsiz hodisalarning oldini olish mumkin.

ENG KO'P UCHRAYDIGAN HOLATLAR

Keling, shu yo'nalishda olib borilgan tadqiqot va o'rganishlarning bir nechtasini misol tariqasida ko'rib chiqamiz. Bir holatda transport vositasi qorli sirpanchiq yo'lga harakatlanish davomida qatnov qismidan chiqib ketib, yo'l-transport hodisasiga uchragan. Natijada yo'lovchilar turli xil tan jarohatlari olishgan. Ekspert transport vositasining texnik holatini tekshirishda uning g'ildiraklari shinalari yurish qismi rasmlari, ya'ni naqshi umuman yo'qligini aniqladi. Vaholanki, amaldagi YHQning talablariga ko'ra, M-1 toifasidagi yengil transport vositalarining yurish qismi naqshi 1.6 mm.dan kam bo'lmashligi shart.

Transport vositasining yurish qismi naqshlari yeyilishi birdan vujudga kelmaydigan holatdir. Naqshlarning yo'qolib ketishi uzoq vaqt davomida vujudga keladi. Aslida bu holatni haydovchi yo'lga chiqishdan oldin aniqlash imkoniyatiga ega edi. Lekin Yo'l harakati xavfsizligi boshqarmasi tomonidan texnik ko'rik o'tkazishda kamchilikka yo'l qo'yilgan. Shu sababli, Yo'l harakati xavfsizligi boshqarmasiga transport vositalarini texnik ko'rikdan sifatli, tegishli tartibda, vijdonan o'tkazishga e'tibor qaratish lozimligi haqida profilaktik tavsiya sifatida ma'lumot yuborildi.

Yana bir hodisani ko'rib chiqamiz. Deylik, ma'lum bir chorrahada transport vositalari ishtirokida tez-tez to'qnashuvlar sodir etilishi aniqlandi. Uning sabablari o'rganilganida, tartibga solinmagan chorrahada har ikkala yo'nalishdagi transport vositalari haydovchilari o'zlarini harakat imtiyoziga ega deb o'ylab harakatlanishlari ma'lum bo'ladi. Bunda bir yo'nalish bo'yicha yo'lning qatnov qismi kengroq bo'lgani uchun haydovchi o'zini asosiy yo'lga deb o'ylaydi. Ikkinchi yo'nalishdagi transport vositalari esa, o'ng qo'l qoidasiga rioya qilgan holda chap tomondan harakatlangan transport vositalariga yo'l bermaydi. Buning oqibatida esa, to'qnashuv sodir bo'ladi. Shundan so'ng tegishli tartibda Yo'l harakati xavfsizligi boshqarmasiga murojaat qilinib, bu chorrahaga "Asosiy yo'l" 2.1 va "Yo'l bering" 2.4 yo'l belgilari o'rnatish bo'yicha profilaktik taklif kiritildi.

Xulosa o'rinda shuni aytish kerakki, ekspertlar o'tkazilgan tadqiqotlar natijalaridan kelib chiqib, qonunchilikka profilaktik takliflarini kiritishi zarur. Chunki shu orqali yo'l-transport hodisalari sonini kamaytirish va bu yo'nalishdagi huquqbuzarliklarning oldini olish mumkin.

Zafar SAYFUTDINOV,

X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazi yetakchi eksperti



BOG'CHA UCHUN TO'LOV OLINMAYDIMI?

– Bolalar bog'chasi to'lovidan kimlar ozod etilgan?

– Bolalar bog'chasi to'lovidan quyidagilar ozod etilgan:

- boquvchisini yo'qotgan xotin-qizlar;
- kam ta'minlangan oilalar.

Bunda kam ta'minlangan oilalarning bolalari uchun imtiyoz bog'chadagi jami o'rinlarning 15 foiz qismiga beriladi.

Shuning uchun imtiyoz avvalambor ota-onalarning bittasi yoki ikkitasida I yoki II guruh nogironligi bo'lgan, shu jumladan, jami daromadi eng past bo'lgan kam ta'minlangan oilalarga beriladi.

CHET ELDA ISHLAYDIGANLARNING OILA A'ZOLARIGA YORDAM BERILADIMI?

– Otasining vafotidan keyin o'g'lim chet elga ishlashga ketdi. U uch bolaning otasi, kelinim ham ishsiz, bolalari yosh. Bir yil bo'ldi, qizimni turmushga berdik. Keyingi paytda o'g'limning sog'lig'i yomonlashdi, ishlari avvalgiday emas. Chet elda ishlab yurganlarning oila a'zolariga yordam beriladi deb eshitdim. Shu bo'yicha ma'lumot bersangiz?

– 2022-yil 1-martdagi "Xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini va ularning oila a'zolarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident farmoniga ko'ra, har yili O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi mablag'lari hisobidan boquvchisi chet elga ishlashga ketgan kam ta'minlangan oilalarga BHMning 2 baravari miqdorida bir martalik moddiy yordam beriladi.

Chet elga ishlashga ketgan fuqarolarning kam ta'minlangan oila a'zosi bo'lgan yoki "Temir daftar", "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari"dan biriga kiritilgan, nogironligi bo'lgan oila a'zolariga dorilar, nogironlik aravachalari, eshitish apparatlari va ortopediya mahsulotlarini sotib olish uchun BHMning 5 baravari miqdorida bir martalik moddiy yordam beriladi.

Shuningdek, chet elga ishlashga ketgan fuqarolarning O'zbekistonda ular bilan birga yashovchi nafaqa yoshiga yetgan yoki I va II guruh nogironligi bo'lgan oila a'zolariga O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasiga tegishli sanatoriya va profilaktik davolanish joylariga bir martalik bepul yo'llanma beriladi.

Farmonga ko'ra, kam ta'minlangan oila a'zosi bo'lgan yoki "Temir daftar", "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari"dan biriga kiritilgan chet elga ishlashga ketgan fuqarolarning bolalariga dam olish oromgohlariga bepul yo'llanma berish belgilangan.

Nurya BERDINIYAZOVA,

Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligining huquqiy axborot bo'yicha bosh maslahatchisi

4 ADLIYA ODAMLAR ORASIDA

Nurafshon shahar adliya bo'limiga fuqaro U. Valixodjayevning ishonchli vakili R. Sobirov ariza bilan murojaat qilib, fuqaroning bino-inshootlari buzilishi natijasida ko'rilgan zararni qoplashda amaliy yordam berishni so'ragan.

Do'konlar buzildi, qarz esa sud orqali undirildi



O'rganish davomida aniqlanishicha, O'rtachirchiq tuman hokimining 1994-yil 22-apreldagi 406-sonli qarori bilan fuqaro U. Valixodjayevga sobiq To'ytepa, hozirgi Nurafshon shahrining "Toshkent yo'li" ko'chasidan do'kon qurish uchun yer uchastkasi ajratib berilgani, fuqaro ushbu yer maydonida do'kon qurgani va tuman hokimining 1995-yil 14-fevraldagi 85-sonli qarori bilan qo'shimcha yer uchastkasini sotib olgani hamda ushbu yer uchastkasida savdo do'konlari, novvoyxona va oshxona qurib tadbirkorlik faoliyatini kengaytirgani ma'lum bo'ldi.

Shuningdek, unga 1995-yil 8-avgustda mulk huquqini tasdiqlovchi davlat orderi berilgan, qurilgan bino va inshootlarga hokimning 2003-yil 3-martdagi qarori bilan uning nomiga egalik huquqi va xuddi shu qarorga asosan 2003-yil 20-martda bino-inshootlarning davlat ro'yxatidan o'tkazilgani haqida guvohnoma berilgan. Shahar hokimligi mas'ul xodimlari tomonidan fuqaro U. Valixodjayevga tegishli mazkur bino-inshootlar ogohlantirish berilmasdan, qonunda belgilangan tartibda kelishuv bitimi tuzilmasdan, kompensatsiya to'lanmasdan buzib tashlangan.

Shundan so'ng tadbirkor baholash faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'lgan "Biznes baholash" MChJga murojaat qilishi natijasida o'ziga tegishli bo'lgan bino-inshootlarning qiymati 1 milliard 391 million 982 ming 168 so'mga baholangan va "Kontinent imkon baho" MChJ ekspertlari tomonidan o'rganilib, baholash natijasining asosli ekani to'g'risida xulosa qilingan. Afsuski, mutaxassis va ekspertlarning xulosalari shahar hokimligiga taqdim etilib, zararni qoplab berish so'ralganda, murojaat hokimlik tomonidan e'tiborga olinmagan.

To'plangan hujjatlarga asosan, shahar adliya bo'limi tomonidan tadbirkorning ishonchli vakili R. Sobirovning arizasi asosida U. Valixodjayevning manfaatida javobgar Nurafshon shahar hokimligidan 1 milliard 391 million 982 ming 168 so'm kompensatsiya undirib berish yuzasidan fuqarolik ishlari bo'yicha O'rtachirchiq tumanlararo sudiga da'vo arizasi kiritildi va sud tomonidan da'vo arizasi qanoatlantirilib, hal qiluv qarori qabul qilindi.

Gulboy RAHMONQULOV,
Nurafshon shahar adliya bo'limi boshlig'i

"Aliment to'lovchi shaxsning daromadi yo'qmish...", "MIB otaning nomida hech qanday mulk yo'qligi sababli alimentni undirib bera olmabdi...". Aliment borasida tez-tez qulog'imizga chalinib turadigan ana shunday gap-so'zlar kishida nahotki qonunchilikda voyaga yetmagan farzandlari uchun aliment undirishning biror chorasini bo'lmasa, degan fikr uyg'otadi. Oila kodeksida bunday hollarda qanday chora ko'rishning qonuniy yechimi yaqqol ko'rsatib o'tilgan.

Alimentni bobo va buvi ham to'lashi mumkin



Xususan, kodeksning 123-moddasiga ko'ra, ota-onasi yo'q bo'lgan yoki ulardan ta'minot ololmaydigan voyaga yetmagan nevaralariga ta'minot berish majburiyati yetarli mablag'ga ega bo'lgan bobo va buvi zimmasiga yuklatilishi mumkin. Voyaga yetgan mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj nevaralarning ota-onasi, eri yoki xotini (sobiq eri yoki xotini) va voyaga yetgan mehnatga layoqatli bolalari bo'lmasa yoxud ulardan ta'minot uchun mablag' ololmasa, ularga nisbatan ham bu majburiyat bobo va buvining zimmasiga yuklatilishi mumkin.

Xo'sh, bu tartib qanday hollarda tatbiq qilinadi? Qonunchilikka asosan, bobo va buvining zimmasiga voyaga yetmagan nevaralariga ta'minot berish majburiyatini yuklash uchun birinchi navbatda voyaga yetmagan nevaralarning ota-onasi, ya'ni shu nevaraga bobo va buvi bo'lgan shaxslarning bolalari yo'qligi, shuningdek, nevaralarning ota-onalarining bolalari yo'qligi hamda bobo va buvi voyaga yetmagan nevaralariga ta'minot berish uchun yetarli mablag'ga ega bo'lishi shart.

Ular nafaqat voyaga yetmagan nevaralariga, balki voyaga yetgan mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj nevaralariga ham ta'minot berishlari lozim bo'ladi. Bunda mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj nevaralarning ota-onasi, eri yoki xotini (sobiq eri yoki xotini) va voyaga yetgan mehnatga layoqatli bolalari bo'lmasa yoxud ulardan ta'minot uchun mablag' ololmasa, bobo va buvi ularga ta'minot berish majburiyatini zimmasiga oladi.

Mansur HASANOV,
Samarqand viloyat adliya boshqarmasi mas'ul xodimi

Uchtepa tumanida joylashgan "Davlatobod", "Xojiobod", "Farhod", A. Qodiriy, "Guzar", "Vatanparvar", "Qoziguzar", "Vatan" mahalla raislarining tuman kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi tomonidan ustama pullari to'lanmayotganidan norozi bo'lib yozgan arizalari tuman adliya bo'limi tomonidan ko'rib chiqildi.

Ustamasiz qolgan raislarning murojaati o'rganildi



Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 28-dekabrda qabul qilingan "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari xodimlarini rag'batlantirish jamg'armasi to'g'risida"gi Nizomning 15-bandiga asosan, tuman (shahar) mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limi tomonidan reyting baholash natijalariga ko'ra "namunali", "yaxshi", "qoniqarli" deb topilgan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari xodimlariga baholashning reyting tizimi bo'yicha (100, 75, 50 foizgacha miqdorda) har oylik ustamalar belgilanishi hamda kelgusi chorak davomida qo'llanilishi ko'rsatib o'tilgan.

Yuqorida qayd etilgan mahalla raislari 2022-yil 1-yarim yillikdan 2023-yil 2-yarim yillikka qadar "namunali", "yaxshi", "qoniqarli" natijalarga mos keluvchi ballarni qo'lga kiritganiga qaramasdan, tuman kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi tomonidan har oylik ustama puli to'lanmagani ma'lum bo'ldi.

Vaholanki, Mehnat kodeksining 244-moddasiga ko'ra, mehnat to'g'risidagi qonunchilikda xodimlarning mehnatiga haq to'lash sohasidagi ish beruvchining o'z moliyaviy ahvolidan qat'i nazar, mehnat haqidagi boshqa huquqiy hujjatlarda, mehnat shartnomasida belgilangan mehnatga haq to'lash shartlariga muvofiq xodimlar tomonidan bajarilgan ish uchun haq to'lashni amalga oshirish majburiyatini mustahkamlab qo'yish kafolati nazarda tutilishi belgilangan.

Adliya bo'limi tomonidan fuqarolarning manfaatlarini himoya qilgan holda fuqarolik ishlari bo'yicha Uchtepa tumanlararo sudiga mahalla raislari – X. Yusupov foydasiga 46 million 927 ming 680 so'm, Sh. Aripovga 51 million 527 ming 680 so'm, N. Mirzayevaga 64 million 400 ming so'm, L. Turaxodjayevaga 41 million 400 ming so'm, A. Bekseleyevaga 46 million so'm, G. Nuriyevaga 46 million so'm, G. Shariyevaga 58 million 650 ming so'm, M. Umarxodjayeva foydasiga 46 million 920 ming so'm to'lanmay qolgan ustama pullarini undirishni so'rab da'vo arizasi kiritildi. Natijada mahalla oqsoqollarining ustama pullarini undirish yuzasidan sudning hal qiluv qarori qabul qilindi.

Bunyod SAMIYEV,
Uchtepa tuman adliya bo'limi yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti



Xodimni “rotatsiya” qilish qonuniymi?



– Ish beruvchi mening roziligisiz “rotatsiya” qilindingiz, deb meni past malakali ishga o'tkazib qo'ydi. Tabiiyki, oyligim ham kamaytirildi. Shu qonuniymi?

Sanjar YO'LDOSHEV

– Amaldagi Mehnat kodeksida rotatsiya jumlasini keltirilmagan va bunga doir norma belgilanmagan. Mehnat kodeksining talablariga to'xtaladigan bo'lsak, 145-moddaning birinchi qismiga asosan, ishlab chiqarish zaruriyati yoki bekor turib qolish munosabati bilan xodimni mehnat shartnomasida shart qilib ko'rsatilmagan boshqa ishga uning roziligsiz, ish beruvchining tashabbusiga ko'ra vaqtincha o'tkazishga yo'l qo'yiladi. Bunda xodim sog'lig'ining holatiga ko'ra qarshi ko'rsatma bo'lgan boshqa ishga o'tkazilishi mumkin emas. Bekor turib qolish sababli xodimni pastroq malaka talab etiladigan ishga vaqtincha o'tkazishga xodimning yozma roziligi bilan yo'l qo'yiladi.

Ushbu moddaning to'rtinchi qismida esa ishlab chiqarish zaruriyati yoki bekor turib qolish munosabati bilan xodim vaqtincha boshqa ishga o'tkazilgan davrda xodimning mehnatiga haq to'lash bajarayotgan ishiga qarab, biroq avvalgi o'rtacha oylik ish haqidan kam bo'lmagan miqdorda amalga oshiriladi, deb belgilangan.

Shu o'rinda bir narsani ta'kidlab o'tish joiz, “Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida”gi qonunning 39-moddasiga muvofiq, davlat fuqarolik xizmatchisining rotatsiyasi uning shaxsiy va kasbga oid sifatlarini rivojlantirish, faoliyatining samaradorligini oshirish, rahbar kadrlar zaxirasini shakllantirish hamda korrupsiyaviy xavf-xatarlarning oldini olish maqsadida amalga oshiriladi.

Davlat fuqarolik xizmatchisining rotatsiyasi uni egallab turgan davlat fuqarolik xizmati lavozimiga teng bo'lgan boshqa lavozimga o'z roziligi bilan o'tkazish orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, mazkur moddaga ko'ra, davlat fuqarolik xizmatida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini


olish maqsadida majburiy ravishda rotatsiya qilinishi lozim bo'lgan davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining ro'yxati belgilanadi. Ushbu lavozimlarni egallab turgan davlat fuqarolik xizmatchilarining rotatsiyasi ularning roziligsiz amalga oshiriladi.

Ushbu moddaning yettinchi qismida davlat fuqarolik xizmatida rotatsiya qilish tartibi, majburiy ravishda rotatsiya qilinishi lozim bo'lgan davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining ro'yxati, shuningdek, rotatsiya qilinadigan lavozimlarda bo'lish muddati O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilanadi, deyilgan bo'lib, agarda siz davlat fuqarolik xizmatchisi hisoblansangiz, keyinchalik shu normalarga asosan teng lavozimga roziligingiz bilan yoki ro'yxatga asosan roziligingizsiz ham rotatsiya qilinishingiz mumkin bo'ladi.

Quyidagi davlat fuqarolik xizmatchilari rotatsiya qilinmaydi:

- ✓ tayyorlash, qayta tayyorlashdan va malaka oshirishdan o'tayotgan;
- ✓ homilador ayollar, shuningdek uch yoshga to'lmagan bolalari bor ayollar;
- ✓ tibbiy xulosaga asosan o'zlarining yoki ular bilan birga yashovchi oila a'zolari sog'lig'ining holati rotatsiya o'tkazilayotgan davlat fuqarolik xizmati lavozimi bo'yicha xizmat majburiyatlarini amalga oshirish imkoniyatini bermaydiganlar.

Davlat fuqarolik xizmatchisining rotatsiyasi shartlari mehnat shartnomasida nazarda tutiladi.



Davlat fuqarolik xizmatchisi rotatsiya to'g'risidagi qarordan norozi bo'lgan taqdirda yuqori turuvchi davlat organiga yoki maxsus vakolatli davlat organiga yoxud sudga shikoyat qilishga haqli.

Ish beruvchining xatti-harakatlari Mehnat kodeksiga asosan noqonuniy deb topilishi mumkin. Mehnat kodeksining 145-moddasiga binoan, sizni ishlab chiqarish zaruriyati yoki bekor turib qolish munosabati bilan boshqa ishga o'tkazish davringiz bir kalendar yil davomida jami oltmish kalendar kundan oshishi mumkin emas. Shuningdek, vaqtincha boshqa ishga o'tkazilgan davringizda mehnatingizga haq to'lash bajarayotgan ishingizga qarab, biroq avvalgi o'rtacha oylik ish haqingizdan kam bo'lmagan miqdorda amalga oshirilishi kerak.

Savolga Farg'ona shahar yuridik xizmat ko'rsatish markazi boshlig'i Sherzod TOLIBOV javob berdi



To'rtko'l tumanida yashovchi fuqaro X.S. tuman adliya bo'limiga murojaat qilib, Budjetdan tashqari pensiya jamg'armasi tuman bo'limi pensiya va nafaqalarni tayinlash komissiyasining xatti-harakatlaridan norozi bo'lib, pensiya ishini qayta o'rganib chiqishni so'ragan.

PENSIYA JAMG'ARMASI XATOSINI TO'G'RILADI



Murojaat joyida o'rganilganda, pensionerning mehnat daftarchasida 1987-1993-yillarda (220 kunlik minimum), 1994-yilda (1 ming 540 soat minimum), 1995-1999-yillarda esa (1 ming 880 soat minimum) jamoa xo'jaligida belgilangan mehnatda ishtirok etish minimumi ko'rsatilgan bo'lsa-da, komissiyaning 2016-yildagi qarori bilan ishlangan vaqtning amalda davom etgan davri hisobga olinmagani aniqlandi.

Vaholanki, O'zbekiston Respublikasi “Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida”gi qonunning 37-moddasida “1965-yildan keyingi davr uchun jamoa xo'jaligidagi ish tajini hisoblab chiqarishda, agar jamoa xo'jaligi a'zosi uzrsiz sabablarga ko'ra, jamoa xo'jaligida belgilangan mehnatda ishtirok etish minimumini bajarmagan bo'lsa, ishlangan vaqtning amalda davom etgan davri hisobga olinadi” deb belgilangan.

Shuningdek, Oliy sud plenumi-

ning “Davlat pensiya ta'minoti bilan bog'liq ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida”gi qarorining 12-bandida “Jamoa xo'jaligida mehnatda ishtirok etganlik holati mehnatning haqiqiy davri va muayyan yilda mehnatda ishtirok etish minimumi ko'rsatilgan xo'jalik a'zosining mehnat daftarchasi bilan tasdiqlanadi” deb ko'rsatilgan.

Yuqoridagi qonunbuzilish holatini bartaraf qilish maqsadida Pensiya jamg'armasi tuman bo'limiga kiritilgan taqdimnomaga asosan pensioner X.S.ning mehnat daftarchasidagi tegishli yozuvlar asosida jamoa xo'jaligida belgilangan mehnatda ishtirok etish minimumining hisobga olinishi ta'minlandi va uning huquqlari tiklandi.

Davronbek ALLABERGENOV,

To'rtko'l tuman adliya bo'limi yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti

BUZISH OSON, TO'LASH-CHI?



Prezidentimizning 2018-yil 13-apreldagi “O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarori hamda “Davlat huquqiy siyosatini amalga oshirishda adliya organlari va muassasalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmoniga muvofiq huquqni qo'llash amaliyotini o'rganish va tahlil qilish tuman adliya bo'limlarining asosiy vazifalaridan biri etib belgilangan.

Toshkent shahar adliya boshqarmasining topshirig'iga binoan, Yakkasaroy tuman adliya bo'limi tomonidan fuqaro S. Madaliyevga xususiy mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan Yashnobod tumanida joylashgan uy-joyi davlat va jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yilishi munosabati bilan kompensatsiya undirishda amaliy yordam berishni so'rab yo'llagan murojaati o'rganib chiqildi.

Fuqaroning muammosini ortiqcha ovozragarchiliklarsiz hal qilib berish maqsadida tuman adliya bo'limi tomonidan tegishli chora-tadbirlar belgilanib, fuqarolik ishlari bo'yicha Mirobod tumanlararo sudiga da'vo arizasi kiritildi. Da'vo arizasi ko'rib chiqilib, fuqarolik sudi tomonidan S. Madaliyev foydasiga 3 milliard 898 million 162 ming so'm kompensatsiya pulini undirish yuzasidan hal qiluv qarori qabul qilindi.

Gulasal JUMAYEVA,

Yakkasaroy tuman adliya bo'limi mas'ul xodimi

6 TALQIN

Tarix 1492-yil 12-oktabrni Amerika kashf etilgan kun deb o'z sahifalariga muhrlab qo'ygan. Amerikani kashf etgan shaxs sifatida Xristofor Kolumbni butun dunyo tan oladi. Tarixni o'rganishni boshlagan o'quvchidan yoki tarixshunos olimdan shu savol so'ralganida, har ikkalasi ham bir xil javob beradi. Chunki, shunday tan olingan va buni o'zgartirib bo'lmaydi.



Bundan tashqari, Amerika xalqi 1937-yildan beri 12-oktabrni milliy bayram sifatida nishonlab keladi. Amerika kashf qilinganida, bu yerda allaqachon mahalliy aholi yashar edi. Faqat u paytda bu qit'a mavjudligi dunyo uchun ma'lum bo'lmagan. Yanada aniqroq aytadigan bo'lsak, ummon ortida yana bir quruqlik borligi o'z isbotini topmagan edi. Amerika kashf etilgunga qadar, Beruniy o'z o'rganishlari natijasida okean ortida yana bir diyora borligini taxmin qilgan edi. Ammo, bu 1492-yilga kelibgina o'z tasdig'ini topdi. O'rta asrlarda kashf etilgan Amerikaning dunyoning eng yetakchi davlatlaridan biriga aylanishini hech kim tasavvur qilmagan bo'lsa ajab emas. Balki, shuning uchun ham Abdulla Oripov bir she'rida

*Amerika – sehrli diyora,
Uxlar edi Kolumb ham hali,
Dengiz ortin yoritdi ilk bor,
Beruniyning aql mash'ali.
Kolumbda bor alamim manim,
O'zbekiston, Vatanim manim, –*
deya xitob qilgan edi.

Hozirgi kunda bu sehrli diyorda yashash va ishlash istagini bildiruvchilar soni yildan-yilga ortib bormoqda. Ko'pchilik vatandoshlarimiz Green Card yutib olish uchun har yili harakat qilishadi. Buni AQSh elchixonasi taqdim etgan ma'lumotlardan ham bilish qiyin emas. 2023-yilda ushbu vizani qo'lga kiritish uchun taxminan 119 mingdan ziyod kishi ro'yxatdan o'tgan. 6-may kuni e'lon qilingan natijalarga ko'ra, Green Card yutganlarning eng ko'pi Afrika, Osiyo va Yevro-

pa mamlakatlarida ro'yxatdan o'tgan. Unga ko'ra, Misrda 5 ming 529, Jazoirda 5 ming 526, O'zbekistonda 5 ming 511 kishi o'z maqsadlariga yetgan.

Ushbu yutuq egalarining aksariyati AQShda yangidan hayot boshlash va tirikchilik qilish uchun borishadi. Green Card o'ynamasdan ham, nu-fuzli oliy ta'lim yurtlarida ta'lim olish maqsadida Amerikaga yo'l olayotgan hamyurtlarimiz ham ko'payib bormoqda. Shu o'rinda aytib o'tish joizki, ilk bor mustaqilligimizdan so'ng, O'zbekistondan AQShga borib tahsil olayotgan talabalar 1994-yilda qayd etilgan. O'sha davrda Qo'shma Shtatlarda o'qiyotgan talabalar soni 109 nafarni tashkil qilgan. Hozirda esa 1 ming 89 nafar o'zbekistonlik AQShning turli ta'lim muassasalarida ta'lim olmoqda. Bu quvonarli natija, albatta. Chunki, talabalarning yarmidan ko'pi Amerika tomonidan ajratilgan grantlar asosida ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'lishgan. Xorij tajribasidan xabardor yoshlar vatanga qaytishganidan keyin o'z sohalarini bo'yicha ish faoliyatini davom ettiradilar. Tajribalaridan hamkasblariga ulashgan holda mamlakatimiz taraqqiyotiga o'z hissalarini qo'shadilar.

Dunyoning eng yaxshi 100 talik oliy ta'lim muassasalarida tahsil olib qaytgan yoshlar davlatimiz tomonidan qo'llab-quvvatlanayotganini yoshlarimiz uchun katta rag'batlantirish deyish mumkin. AQShga o'qish yoki ishlash uchun qonuniy yo'llar bilan yo'l olayotgan hamyurtlarimizga davlatimizning ham, Amerikaning ham hech qanday qarshiligi yoxud e'tirozi yo'q. Biroq, no-qonuniy yo'llar orqali xorijga chiqayotgan, o'z hayotini xavfqa qo'ygan holda

qochoq sifatida chegaradan o'tib, yashirib yurganlar yoki qo'lga tushib, hibsdan saqlanayotgan yurtdoshlarimiz ham bor bu o'lkada.

Yurtimizga charter reys orqali 119 nafar hamyurtimiz Amerikadan qaytarilganiga ko'p bo'lgani yo'q. 2021-yildan 2023-yilgacha AQSh hukumati tomonidan "alohida qiziqish uyg'otuvchi shaxslar" sifatida tasniflangan o'n minglab muhojirlar Meksika orqali AQShga noqonuniy kirishga harakat qilishgan. Qo'lga olinganlarning 13 mingdan ortig'i O'zbekiston fuqarolaridir.

Ma'lum qilinishicha, Amerikada, asosan, Markaziy Osiyo fuqarolari uchun reydlar boshlangan. Chegaradan o'tishdagi sarf-xarajat, turli xil xatarlar, hisbsga olinish ehtimoli mavjud bo'lsa ham, bu "sehrli diyora" yurtdoshlarimizni o'ziga chorlamog'da. Davlatimiz tomonidan fuqarolarni qaytarish uchun sa'y-harakatlar o'z-o'zidan amalga oshmaydi. Diplomatik kelishuvlar, moddiy tomondan qilingan sa'y-harakatlar vatandoshlarimizning qaytarilishiga sabab bo'lmoqda. Shunday paytda o'yab qolasan kishi, fuqarolarimiz nima uchun qonuniy yo'llar turib noqonuniy yo'llarni tanlashmog'da?! Nima uchun olis yurtlarda yurtimiz va xalqimiz nomi qoralanib, salbiy tushunchalar shakllanishiga sabab bo'ladigan harakatlar qilishmog'da? Bu borada donishmand xalqimizning "Har yerni qilma orzu, har yerda bor tosh tarozi" degan so'zlaridan ibrat olsak yaxshi bo'lar edi.

Sug'diyona OTAMIRZAYEVA,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Xorijiy tillar kafedrasida o'qituvchisi

DORILARNING XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH UCHUN FARMAKOLOGIK NAZORAT ZARUR!

Prezidentning 2024-yil 23-yanvarda qabul qilingan "Farmatsevtika sohasini tartibga solish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoniga binoan, joriy yilning 1-iyulidan boshlab aholini sifatli, xavfsizligi va samaradorligi kafolatlangan dori vositalari va tibbiy buyumlar bilan ta'minlash uchun mas'uliyat dori vositalari va tibbiy buyumlarni tayyorlovchi, ulgurji hamda chakana realizatsiya qiluvchi tashkilotlar zimmasiga yuklatildi. Qolaversa, ularga nisbatan davlat nazoratini amalga oshirishning alohida qoidalari belgilanadi.



Shuningdek, dori vositalaridan foydalanish bilan bog'liq potentsial xavf-xatarlarni tezkor aniqlash va ularga javob berishga qaratilgan, xalqaro standartlar talablari asosida farmakologik nazorat tizimi tashkil etiladigan bo'ldi. Bunda farmakologik nazoratni joriy etishda "Zarur farmakologik nazorat amaliyoti – GVP" standarti tatbiq etilib, tibbiyot tizimining barcha bo'g'inlarida dori vositalarining nojo'ya ta'sirlari to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'uvchi va tahlil qilish imkonini beruvchi elektron axborot tizimi yaratiladi.

To'g'ri, so'nggi yillarda aholini dori vositalari bilan ta'minlash sohasida katta o'zgarishlar ro'y berdi. Xususan, farmatsevtika mahsulotlarini ishlab chiqarishni mahalliy lashtirish qoida va mezonlari shakllantirilib, buning qo'shimcha shartlari joriy etildi. Ammo O'zbekiston sifatli dori vositalarini iste'mol qilish bo'yicha MDHning rivojlangan davlatlaridan ortda qolmoqda. Jumladan, xorijiy mamlakatlardan yurtimizga kirib kelayotgan dori vositalarining sifati Sog'liqni saqlash vazirligi organlari tomonidan o'rnatilgan tartibda tekshirilmay, ularga serti-

fikat taqdim etilishi oqibatida aholi o'rtasida nojo'ya ta'sir qiluvchi dori vositalari ko'paymoqda.

Bir eslaylig-a, 2023-yilning avgust oyiga qadar O'zbekistonda Hindistonning "Dok-1 Maks" va "Abranol" siroplari iste'molidan 65 nafar bola vafot etgandi. Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan mazkur siroplarning tarkibi o'rganilgandan so'ng Hindistonning "Uttar-Pradesh" shtatidagi zavod faoliyati to'xtatildi.

Dorivor vositalarini ishlab chiqarish va ularni realizatsiya qilish bo'yicha davlat tomonidan tartibga solishning barcha shakllari milliy xarakterga ega bo'lib, har bir davlatning qonunchilik xususiyatlari davlat tuzilishi, sog'liqni saqlash organlari hamda farmatsevtika xizmatining tuzilmalari, an'analari va mavjud resurslaridan kelib chiqadi. "O'z-o'zini davolash" konsepsiyasi hamda sog'liqni saqlashga doir xarajatlarni qisqartirishga qaratilgan davlat siyosatining keng tarqalishi fuqarolarda yengil kasalliklar vujudga kelganda shifokor retseptsiz dorixonalarga murojaat qilish jarayonini ko'paytiradi. Bu farmatsevtika muta-

xassislariga iste'molchiga yangi turdagi xizmatlarni taklif qilish imkoniyatini beradi. Farmatsevtika bozorida dorixonalarning o'rni va roli o'zgarishi farmatsevtik mahsulotlarning savdo ulushi oshishi bilan bog'liq.

Qayd etilgan holatlar shuni ko'rsatadiki, retseptsiz dori vositalarini qo'llashga doir ko'rsatmalarining kengayishi dori vositalarining chakana savdosi ustidan davlat nazoratini o'rnatishda bir qator qiyinchiliklarni vujudga keltiradi. Dori vositalarining xavfsizligini ta'minlash uchun "Zarur farmakologik nazorat amaliyoti – GVP" standartini tatbiq qilish maqsadga muvofiq. Qolaversa, dori vositalari muomalasining barcha bosqichlarida, shu jumladan GDP (zarur distribyutorlik tajribasi) va GPP (namunali dorixona tajribasi) standartlarini o'rnatish aholining sifatli dori vositalari bilan ta'minlanishida muhim hisoblanadi.

Mavjuda XUDOYBERGANOVA,
Toshkent davlat yuridik universiteti "Ma'muriy va moliya huquqi" kafedrasida o'qituvchisi



Qaysi hududga bormaylik, “ko’p bolali oilalarga davlat tomonidan qanday imtiyozlar bor”, “mening 4 nafar farzandim bor, men ko’p bolali oila tarkibiga kiraman-mi?”, – degan savollarga duch kelishimiz tabiiy. Shu o’rinda bir savol tug’iladi. Haqiqatan ham kimlar ko’p farzandli oila hisoblanadi?

KO’P BOLALI OILA TOIFASIGA KIMLAR KIRADI?

Oila kodeksining 41-moddasiga ko’ra, ko’p bolali oilalar ijtimoiy muhofaza qilinishi belgilangan. 4 nafar va undan ortiq 18 yoshga to’lmagan bolasi bo’lgan oila ko’p bolali oiladir. Bunda, agar 4 nafar va undan ortiq bolalaridan bir nafari yoki undan ko’prog’i ta’limning kunduzgi shaklida (o’rta maxsus va professional, oliy) ta’lim tashkilotlarida o’qiyotgan hamda 22 yoshga to’lmagan bo’lsa, bu oila ham ko’p bolali oila deb hisoblanadi. Yuqoridagi moddada bundan tashqari, davlat ko’p bolali oilalarga qonunchilikka muvofiq imtiyozlar va ijtimoiy kafolatlar berilishini ta’minlashi haqida ham aytib o’tilgan.

Xususan, ko’p bolali oilalarning ota-onalariga ishga joylashishda kafolatlar nazarda tutilgan. Mehnat kodeksining 68-moddasiga asosan, davlat ijtimoiy himoyaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng sharoitlarda raqobatlashishga qodir bo’lmagan shaxslarga, shu jumladan o’n to’rt yoshga to’lmagan bolalari, nogironligi bo’lgan bolalari bor yolg’iz otaga yoki onaga, shuningdek, ko’p bolali oilalarning ota-onalariga qo’shimcha kafolatlarni ta’minlashi belgilab qo’yilgan.

Bundan tashqari, Soliq kodeksining 436-moddasi birinchi qismi 5-bandiga muvofiq, boquvchisini yo’qotgan ko’p bolali oilalar (ota va onadan biri yoxud ota-ona vafot etgan ko’p bolali oilalar) jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig’ini to’lashdan ozod etilishi belgilab qo’yilgan bo’lib, ushbu imtiyoz Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg’armasi tuman (shahar) bo’limining ma’lumotnomasi asosida beriladi.

Shuningdek, “Davlat ijtimoiy sug’urtasi bo’yicha nafaqalar tayinlash va to’lash tartibi to’g’risida”gi Nizomning 26-bandiga ko’ra, qaramog’ida 16 yoshga (o’quvchilar 18 yoshga) yetmagan uch yoki undan ortiq bolalari bo’lgan xodimlarga vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi ish stajining davomiyligidan qat’i nazar ish haqining 100 foizi miqdorida to’lanishi hamda Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 16-yanvardagi 14-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizomga binoan, uy-joy sharoitlarini yaxshilashga muhtoj bo’lgan ko’p bolali oilalar ko’p kvartirali uylardan imtiyozli kredit asosida uy-joy olishi, ehtiyojmand mehnat migrantlari hamda xotin-qizlarga ajratiladigan arzon uy-joylardan uy (kvartira) olishi mumkinligi, Hukumatning 2021-yil 20-maydagi qaroriga ko’ra, ko’p bolali oilalarning bolalari davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlariga ustunlik bilan qabul qilinish huquqiga ega ekanini belgilab qo’yilgan.

Maftuna G’AFFOROVA,

Sariosiyo tuman adliya bo’limi yuridik xizmat ko’rsatish markazi bosh yuriskonsulti

Xotin-qizlar huquqlari – davlat himoyasida

IMTIYOZLI UY-JOYLAR

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 6-dekabrdagi “Uy-joyga muhtoj xotin-qizlarni uy-joy bilan ta’minlash hamda Toshkent shahrida boshpanasiz, og’ir turmush sharoitiga tushib qolgan fuqarolarning yashash sharoitlarini yaxshilash chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarori bilan og’ir ijtimoiy ahvoldagi xotin-qizlarga imtiyozli uy-joylar beriladi.

Uy-joyga muhtoj xotin-qizlarga beriladigan arzon uy-joylar to’lovining:

- ☒ 10 foizi Xotin-qizlarni qo’llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg’armasi, talabgor ishlayotgan tashkilot va boshqa manbalar hisobiga (boshlang’ich badal sifatida);
- ☒ 90 foizi banklarning imtiyozli kreditlari hisobiga qoplanadi.

Bu bo’yicha arizalar tuman hokimi boshchiligidagi hududiy komissiyaga beriladi.

TASHABBUSKORLAR TAQDIRLANADI

Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 2-apreldagi “Mo’tabar ayol” ko’krak nishonini ta’sis etish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qaroriga asosan faol va tashabbuskor xotin-qizlar “Mo’tabar ayol” ko’krak nishoni bilan taqdirlanadi.

Qarorga ko’ra, mazkur ko’krak nishoni bilan jamiyat va davlat hayotida faollik va tashabbuskorlik ko’rsatgan, o’zining samarali mehnati bilan oilaning shakllanishiga hamda farovonligi mustahkamlanishiga, onalik va bolalik muhofazasiga munosib hissa qo’shgan xotin-qizlar taqdirlanishi belgilangan. Shuningdek, sog’lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish, ularni vatanparvarlik va istiqloql g’oyalari-ga sadoqat ruhida tarbiyalash, joylarda ma’naviy-axloqiy muhitni sog’lomlashtirish va milliy qadriyatlarimizni keng targ’ib etish borasida ibratli faoliyat olib borayotgan xotin-qizlar ham “Mo’tabar ayol” ko’krak nishoni bilan taqdirlanadi.

ISHLAYDIGAN AYOLLARGA IMTIYOZ

Xotin-qizlarning mehnat huquqlariga oid alohida imtiyozlar belgilangan. Xususan, ishlaydigan onalarga bolani ovqatlan-tirishga tanaffus beriladi.

Mehnat kodeksiga muvofiq, 2 yoshga to’lmagan bolali ayollarga bolani ovqatlantirish uchun (o’ziga berilgan dam olish va ovqatlanish uchun beriladigan tanaffusdan tashqari) kamida har 3 soatda bir marta har biri 30 minutdan kam bo’lmagan tanaffus beriladi.

2 yoshga to’lmagan ikki va undan ko’p bolali ayollarga tanaffusning muddati kamida 1 soat qilib belgilanadi. Mazkur tanaffuslar uchun ish haqi kamaytirilmaydi.

Bolali ayolning xohishiga ko’ra tanaffuslar dam olish va ovqatlanish uchun belgilangan tanaffusga qo’shib berilishi yoki umumlashtirilib, ish kunining boshiga yoki oxiriga ko’chirilib, ish kuni shunga yarasha qisqartirilishi mumkin.

Mehnat kodeksining 232-moddasiga asosan 12 yoshga to’lmagan ikki va undan

ko’p bolasi yoki 16 yoshga to’lmagan nogiron bolasi bor ayollarga har yili 3 ish kunidan kam bo’lmagan haq to’lanadigan qo’shimcha ta’til beriladi. Shuningdek, ularning xohishiga ko’ra har yili 14 kalendar kundan kam bo’lmagan ish haqi saqlanmagan ta’til beriladi. Bunday ta’til yillik ta’tilga qo’shib berilishi yoki alohida foydalanilishi mumkin.

Mehnat kodeksining 227-moddasiga asosan 2 yoshga to’lmagan bolasi bor ayollar avvalgi ishini bajarishi mumkin bo’lmaganida bolasi 2 yoshga to’lgungacha yengilroq yoki noqulay ishlab chiqarish omillarining ta’siridan xoli ishga o’tkaziladi. Bunda avvalgi ishidagi o’rtacha oylik ish haqi saqlab qolinadi.

2019-yil 7-martdagi “Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo’llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to’g’risida”gi Prezident qaroriga ko’ra, erkak va ayollar huquqlari tengligining buzilishi bilan bog’liq ishlarning sudlarda ko’rib chiqilishida ayollarga advokatlar tomonidan ko’rsatiladigan yuridik xizmat uchun haq ularning xohishiga ko’ra davlat hisobidan qoplanadi.

PENSIYA YOSHI

Ayrim ayollar 53 yoshda pensiyaga chiqishi mumkin. O’zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to’g’risida”gi qonuniga ko’ra, texnologiyadagi, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishdagi o’zgarishlar, xodimlar soni (shtati) yoki ish xususiyatining o’zgari-shiga olib kelgan ishlar hajmining qisqargani yoxud korxonaning tugatilgani munosabati bilan ishdan ozod etilgan va ishsiz deb e’tirof etilgan ayollar 53 yoshga to’lganda va ish staji kamida 20 yil bo’lganda pensiya olish huquqiga ega bo’ladi.

Ayollarni pensiya yoshiga to’lgani sababli ish beruvchi tashabbusi bilan ishdan bo’shatish taqiqlanadi.

Mehnat kodeksiga asosan, ayollarning pensiya yoshiga to’lgani yoki yoshga doir davlat pensiyasini olish huquqi vujudga kelgani sababli nomuayyan muddatli mehnat shartnomasini 60 yoshga to’lgunga qadar yoki muddatli mehnat shartnomasining muddati tugagunga qadar ish beruvchining tashabbusiga ko’ra bekor qilish mumkin emas.

AVTOTRANSPORT BOSHQARUVI

Xotin-qizlar endilikda yuk ko’tarishi 2,5 tonnadan ortiq bo’lgan yuk avtomobillarini hamda yo’lovchilarning soni 14 kishidan ortiq bo’lgan avtobuslarni boshqarish huquqiga ega.

Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 12-fevraldagi “Mamlakatimizda ayollar mehnatidan muayyan soha yoki kasblarda foydalanish bo’yicha taqiqlar bekor

qilinishi munosabati bilan Vazirlar Mahkamasining “Avtomototransport vositalari va shahar elektr transporti vositalari haydovchilarini tayyorlash hamda qayta tayyorlash bo’yicha nodavlat ta’lim xizmatlarini ko’rsatish faoliyatini litsenziyalash tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi 2018-yil 31-maydagi 408-son qaroriga o’zgartirishlar kiritish haqida”gi qaroriga asosan ayollarga quyidagi yo’nalishlar bo’yicha mehnat faoliyatini olib borish uchun huquqiy asos yaratildi:

- ☒ yuk ko’tarishi 2,5 tonnadan ortiq bo’lgan yuk avtomobillarini boshqarish;
- ☒ yo’lovchilarning soni 14 kishidan ortiq bo’lgan avtobuslarni boshqarish.

Eski normalarning bekor qilinishi bilan ayollarga qo’shimcha kasb va sohalarida mehnat faoliyatini olib borishi uchun huquqiy asos mustahkamlandi. Shuningdek, transport sohasida gender tenglikni ta’minlash va katta sig’imli avtobuslarni (elektrobus) boshqarishga ayollarni jalb etish imkoniyati yaratildi.

Qayd etish joizki, zamonaviy avtotransport vositalarining texnik xususiyatlari ayollarga ushbu sohalarida qulay va sog’liqlariga zararsiz mehnat faoliyatini olib borish imkonini beradi.

Shuningdek, mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha sohalarida xotin-qizlar va erkaklarning teng ravishda ishtirok etishini ta’minlashga qaratilgan maxsus strategiyalar hamda dasturlar qabul qilangani xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari ta’minlanishiga, shuningdek ushbu sohada jamoatchilik nazorati o’tkazilishini kuchaytirishga poydevor bo’lmoqda.

Xotin-qizlarni fan, ta’lim va ilmiy-ijodiy faoliyatga keng jalb etish, mehnat bozorida talab yuqori bo’lgan zamonaviy kasb-hunarga o’qitish, ishlash istagidagi xotin-qizlarning bandligiga ko’maklashish, tazyiq va zo’ravonlikdan himoya qilish, ularning ijtimoiy-siyosiy faolligini hamda rahbar lavozimlardagi ulushini oshirish, shuningdek, huquq va manfaatlarini himoya qilish davlatimizning asosiy ustuvor vazifasi bo’lib qolmoqda.

Aziza MUSTAFAYEVA,

Yunusobod tuman adliya bo’limi 2-son FHDY bo’limi mudiri



E’LON

Xorazm viloyat adliya boshqarmasining tegishli buyrug’i bilan “Xusainov Muxammad Salay” advokatlik byurosi rahbari Xusainov Maxmudjon Salae-vichga Xorazm viloyat adliya boshqarmasi tomonidan 2018-yil 27-dekabrda L-70661045-reyestr raqami bilan “Fuqarolik va iqtisodiy, ma’muriy va jinoiy sud ishlarini yuritish ixtisosligi bo’yicha berilgan advokatlik faoliyati bilan shug’ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilishi hamda advokat maqomi Xusainov Maxmudjon Salae-vich vafot etganligi sababli tugatildi.

8 2024-YIL – YOSHLAR VA BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH YILI

INTERNETNING SIRLI
OLAMI

Navoiy davlat konchilik oliygohini tugatgan Norbek Arziyev dovrug'i dunyoga ketgan Navoiy kon-metallurgiya kombinatida yaxshigina lavozimda ishlayotgan bo'lsa-da, "internet olami" haqidagi orzularidan voz kecha olmadi. Xizmat safari bilan Germaniyada stajirovkada bo'lib, dasturlash-tirish bo'yicha o'z bilimlarini oshirib qaytgach, yoshlarga kompyuter texnologiyalaridan, internetdan foydalanishni o'rgatish fikri unga tinchlik bermadi. Ish joyidan voz kechib, 2009-yilda "Sito Navoiy" MChJ ochib, internetning yangi dunyosiga qadam qo'ydi.

O'tgan davr mobaynida ko'zlagan maqsadiga erishdi, salmoqli loyihalar amalga oshirildi. Dastlab korxona tomonidan buyurtmalar, takliflar asosida hokimliklar, shahardagi korxona va tashkilotlar uchun veb-saytlar, dasturlar yaratila boshlandi. "Qizilqumsegment" korxonasida ovqatlanish tizimini axborotlashtirish "Sensorika"ning ilk loyihalaridan edi. Qog'oz talonlar o'rniga elektron kartalar, kassa uchun esa sensorli monobloklar o'rnatildi.

– Markazimiz shundan so'ng "Texno-planet" majmuasi bilan hamkorlikda to'laqonli 3 xil tarafdagi Wi-Fi qahvaxonasini tashkil etib, shaharliklar uchun bu yerda internetdan foydalanishda qulaylik yaratgan edi, – deydi markaz direktori Norbek Arziyev. – Keluvchilar soni yil sayin ortib borar va endi qulayroq va kattaroq binoda ishlash zarurati tug'ilgandi. 2016-yilda viloyat hokimining qo'llab-quvvatlashi bilan yangi markazni qurish uchun yer ajratildi. Loyiha bo'yicha simsiz tarmoqni yaratish qoidalariga binoan ma'lumotlar uzatish bo'yicha professional uskuna, litsenziyalik dasturlar va ma'lumotlarni qayta ishlash uchun kuchli server o'rnatish zarur edi. Bu loyiha uchun 1 mlrd so'mlik investitsiya evaziga 3 qavatli binoni qurishga erishdik.

500 DAN ZIYOD BEPUL
WI-FI ZONALARI
TASHKIL ETISH BIZNES
LOYIHASI G'OLIBI

Ha, tinimsiz mehnat, o'qish, izlanish va o'rganishlar o'z natijasini berdi. Internet targ'ibotchisining orzusi ushaldi. 2019-yilda "Sensorika" Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan o'tkazilgan "O'zini o'zi qoplash asosida loyihalash bo'yicha grant tanlovi"da g'oliblikni qo'lga kiritdi. Bu loyiha asosida "Navoiy viloyatida Wi-Fi zonalarini tashkil etish" nomli biznes loyihadagi Navoiy shahrida 500 dan ziyod bepul Wi-Fi zonalarini tashkil etish ko'zda tutilgan edi. Loyihani moliyalashtirish ishlari Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan bosqichma-bosqich amalga oshirilgan

Bugun biror mamlakat yoki hududning taraqqiyotini faol axborot almashuviz, raqamlashtirish tasavvur qilib bo'lmaydi. Aytish joizki, Navoiy viloyati respublikamizning nafaqat iqtisodiy salohiyatini mustahkamlashga yordam berayotgan sanoat markazi, balki axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash bobida ham yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Viloyat aholisining 60 foizdan ortig'i internetdan foydalanayotgani fikrimizni tasdiqlaydi. "Sensorika" internet markazi nomi bilan mashhur markazga har kuni yuzlab turli toifadagi mijozlar kelib, o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob oladilar.

Muvaffaqiyat
formulasi

holda Latviyaning "Mikrotik" kompaniyasidan 218 million so'mlik Wi-Fi qurilmalari olib kelib o'rnatildi. Shaharda ana shunday qurilmalardan 500 ta o'rnatilishi shaharliklar uchun 6-10 kilometr radiusda cheksiz va bepul Wi-Fi orqali uzluksiz 1 Mbit/s tezlikdagi internetga ulana olishlari ularni internetga bo'lgan qiziqishini yanada oshirdi. 2020-yilning mart oyida tezligi 4 Mbit/s bo'lgan analog uzatma pullik obuna orqali taqdim etildi.

2021-yilning uchinchi choragida Innovatsion rivojlanish vazirligi, Navoiy viloyati innovatsion rivojlanish hududiy boshqarmasi va "Sensorika Education" o'quv markazi hamkorligida loyiha qiymati 1 mlrd 120 mln so'm bo'lgan "Karmana tumani yoshlarini internet orqali pul ishlashga o'qitish" loyihasi amalga oshirildi. Uni amalga oshirish jarayonida yoshlar uchun 6 ta ish o'rni yaratildi. Tuman mahallalarida "Temir daftar", "Yoshlar daftari"ga kirgan ishsiz yoshlarni va "Ayollar daftari"dagi ayollarning farzandlarini internet orqali daromad topishga bepul o'qitish imkoniyati yaratildi. Loyihani amalga oshirish uchun yangi zamonaviy kompyuter texnologiyalari va elektron doskalar olib kelinib, markaz qayta jihozlandi. Shu asosda 700 ga yaqin yoshlarga bepul va 500 nafar yoshlarga pullik ta'lim asosida Web dasturlash, grafik dizaynerlik, kompyuter savodxonligi, Python dasturlar asoslari o'rgatildi.

Markaz rahbari Norbek Arziyev tashabbuskorligi, yangi g'oyalar ijodkorligi, ijobiy mehnat ko'rsatkichlari uchun "Shuhrat" medali bilan taqdirlandi. Markazning nufuzi kundan-kunga oshmoqda. Markazda 10 ga yaqin yo'nalishda o'quv kurslari tashkil etilgani fikrimizning isbotidir. Bunda Dilshod Arziyev, Farhodjon Jo'rayev, Feruz Hasanov kabi malakali mutaxassislar, Javlonbek Xasanov, Abdulhamid Nasriddinov, Bunyodbek Hayitov, Furqatjon Ro'ziqulov singari iqtidorli o'qituvchilarning xizmati katta, albatta.

Markaz faoliyati yanada takomillashdi. Kurslarda o'qish istagini bildiradiganlar soni oshdi. Navoiyliklar va boshqa viloyatlardan keluvchilar axborot, internet texnologiyalari bo'yicha tashkil etilgan kurslarda o'z bilimlarini oshirish imkoniyatiga ega bo'lishdi. Dastlabki 2021-yilda 4 ming nafardan ortiq turli toifadagi fuqarolar bu yerda ta'lim sertifikatini olgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2022-yilda 4,5 ming nafarni, 2023-yilda 5 ming nafarni tashkil etdi.

Yutuqlar, yangiliklar ko'p. 2017-yil noyabr oyida "Sensorika" internet markazi Mirzo Ulugbek innovatsiyalar markazining rezidenti bo'ldi. Shu yili poytaxtda o'tkazilgan nufuzli semi-

narda Markaz tomonidan yaratilgan Notspot.uz dasturi taqdimoti ham o'tkazildi. Ushbu tizim "Unicon" DUK-da davlat ekspertizasidan va Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi tomonidan ro'yxatdan o'tkazilib, unga vazirlik guvohnomasi berildi.

O'QUVCHILAR YETTI
YOSH DAN YETMISH
YOSH GACHA...

Bugungi kunda o'quv markazida yetti yoshdan yetmish yoshgacha bo'lgan tinglovchilar to'rt oy davomida zamonaviy axborot texnologiyalari haqidagi ilk bilimlarni, kompyuterda dasturlashni o'rganib, Word, Excelda, Power Pointda ishlashadi, Word-da matn yozishadi, Excelda jadval yaratishni o'rganishadi, jadvallarni avtomatlashtirishni, ularga formulalar kiritib, jadval ish faoliyatini yengillash-tirishni o'rganishadi. O'zlari tanlagan yo'nalish bo'yicha kompyuter savodxonligi asoslari, algoritmik fikrlash, matnli va grafik redaktorlar bilan ishlash, internetda xavfsiz ishlash, katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash, Python (dasturlash asoslari), Frilansing (pul ishlash), Front end (vab-sayt yaratish), Back end (vab dasturlash), Autocad (loyihalash) hamda 3dsmax grafik dizayni (loyihalar yaratish) kabi kurslarda o'qib, o'z bilimlarini oshirmoqdalar. 3dsmax grafik dizayn kursini tamomlagan 100 dan ortiq o'quvchilar flirans platformasida ishlab, daromad olayotgani ham Markazning yutuqlaridan sanaladi.

Kelgusidagi rejalar bisyor. 2024-yilda markazning Toshkentdagi filiali o'z faoliyatini boshlaydi.

Yana bir yangilik. 2023-yildan boshlab, xalqaro IT sertifikat olgan yoshlar imtihan xarajatlarining 50 foizigacha, 2024-yil mart oyidan boshlab 60 foizigacha qismi miqdorida kompensatsiya olishi mumkin. Shunday sertifikatga xalqaro til sertifikati ham bo'lsa, to'lovlarining 100 foizi qaytarilishi soni ko'paytiriladi. Markazning 4 ta sertifikatini qo'lga kiritgan yoshlar Navoiy shahrida iqtisodiyot va boshqa mutaxassisliklarga ixtisoslashgan xususiy Profi universitetiga imtihonsiz o'qishga kirishi bo'yicha kelishuv bitimi tuzilgan.

Viloyatning boshqa hududlarida ham markazning filialini ochish, yangi ish o'rinlari yaratish, uzoq tumanlarga borib yoshlar bilan ishlash rejalashtirilgan. Telefon qurilmalarining imkoniyatlari bo'yicha ham o'quvchilarga bilim berishni kengaytirish ko'zda tutilgan. Bunday ilg'or fikrlar va kreativ g'oyalar ijodkori bo'lgan yoshlar O'zbekistonning yorug' kelajagi ekani-ga aslo shubha yo'q!

Marusa HOSILOVA.
"Inson va qonun" muxbiri

INSON
va qonunMUASSIS:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGI"Adolat" milliy huquqiy axborot
markazi nashri

info@adolatmarkazi.uz

2007-yil 3-yanvarda
O'zbekiston
Matbuot va axborot
agentligida
0081-raqam bilan
ro'yxatga olinganBosh
muhammadAsliddin
ALIMARDON

TAHRIR HAY'ATI

Alisher Karimov
Furqat Tojiyev
Akbar Musayev
Xayotjon Klichev
Sevara O'rinboyeva
Yorbek Iskandarov
Dilfuza ErgashevaTahririyatga kelgan
qo'lyozmalar taqriz
qilinmaydi va muallifga
qaytarilmaydi.Navbatchi
Gulbahor Ortixojayeva
Sahifalovchi-dizayner
Jasur Tojiyboyev

Nashr indeksi: 137

"Inson va qonun" gazetasi hamda "Huquq va burch"
ijtimoiy-huquqiy jurnali birlashgan tahririyati kompyuter ba-
zasida terildi va sahifalandi. A3 bichimida, 2 bosma taboq
hajmda, ofset usulida "KOLORPAK" MCHJ bosmaxonasida
chop etildi.Korxona manzili: Toshkent shahri, Yunusobod tumani,
17-mavze, Yangi shahar ko'chasi, 1a-uyTiraji – 4120
Buyurtma – 970Topshirish vaqti – 19:00
Topshirildi – 19:00

MANZILIMIZ:

100060, Toshkent sh.
Amir Temur shohko'chasi
19-uy.Faks: (71) 233-28-18
Obuna bo'limi:
(71) 233-25-65

Bahosi kelishilgan narxda

1 2 3 4 5